

15x6,2
81
7-22

Ziyoda Kasimova

**O'ZBEK TILIDAGI
REALIYALARNING
SEMANTIK TADQIQI**

026.2
81
71-22

O'quv zal

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN BA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

Kasimova Ziyoda Movlon qizi

O'ZBEK TILIDAGI
REALIYALARNING SEMANTIK
TADQIQI

Monografiya

"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2024

O'Z MU
O'zbek filologiyasi
fakulteti
ARM

O'FF 2024-0012/48

UO*K: 494.375

KBK: 81.633.1

K 22

Kasimova Ziyoda Movlon qizi.

O'zbek tilidagi realiyalarning semantik tadqiqi [Matn] :
monografiya / Z.M. Kasimova. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
– 114 b.

Monografiyada realiya hodisasining tavsifi berilgan. Realining yondosh tushunchalardan farqi asoslangan. Realiya tasnifiga doir qarashlar umumlashtirilgan. Diniy, urf-odat, an'ana bilan bog'liq, maishiy realiyalar tahlil etilgan. Realiyalar semantikasini tarjima matnlarda ifodalash muammolari tahlil etilgan. O'zbek tilidagi realiya birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari o'xshatishlar, ko'p ma'nolilik hodisasi, barqaror birikmalar misolida ko'rsatib berilgan.

Monografiya antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya yuzasidan izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarga, magistrantlarga, bakalavriat bosqichi talabalariga mo'ljallangan.

Mas'ul moharrir:

Zulxumor Xolmanova – f.f.d., professor

Taqrizchilar:

Nilufar Abduraxmonova – f.f.d., professor

Muhayyo Hakimova – F.f.d., professor (v.b.)

Monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 24-noyabrdagi kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan (12-raqamli bayonnoma).

ISBN 978-9910-761-84-3

© Kasimova Z.M.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasini inson omili, madaniy munosabatlar, milliy ong nuqtayi nazaridan tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Ijtimoiy voqelik, turmush tarzining tilda ifodalanish tamoyillari, milliy predmetlarning shaxs idroki va lisoniy ongida aks etish darajasi lingvokulturologik tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylandi. Mavjud reallikni kategoriyalashtirish, olamning lisoniy manzarasi, subyektiv munosabat, baholash mezonlari, qadriyat asoslari tilning to'plash vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning milliy madaniyat, etnos, urf-odat va qadriyatlarni ifodalashdagi kommunikativ, emotsional-ekspressiv imkoniyatlari, tarixiy taraqqiyoti milliy xos so'zlar, xususan, realiyalarda o'z ifodasini topadi.

Dunyo tilshunosligida zamonaviy yo'nalishlar kesimida inson va uning makon, zamon va kishilik jamiyatidagi o'zaro munosabati, milliy-madaniy qadriyatlarning lisoniy ifodasiga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lingvokulturologiyaga doir izlanishlarning asosiy masalalaridan biri realiyalar tadqiqidir. Realizaga berilgan ta'riflar, realizalar tasnifi, yuzaga kelish omillari, realizalar semantikasi va realiya birliklar ma'nosining tarjima matnlarda ifodalanishi, yondashuvlarning xilma-xilligi sohada bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Realiza lingvokulturologiyaga oid tushuncha sifatida madaniyatlararo munosabatlar bilan bevosita, tarjimashunoslik sohasi bilan bilvosita aloqadordir. Realiza tushunchasining milliy madaniyatda tutgan o'rni, til egasi lisoniy ongida barqaror o'rinishuvi, qadriyatlar, milliy kolorit, tafakkur, idrok bilan bog'liqligi, muloqot madaniyatida belgilovchi ahamiyatga ega ekanligi bu boradagi tadqiqotlarning dolzarbligini asoslaydi.

Mustaqillik imkoniyatlari tufayli uchinchi renessans davrida Yangi O'zbekistonning milliy taraqqiyot negizidagi mustahkam asoslari yaratilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda

XX asrning 50-yillariga kelib tildagi milliy-madaniy belgilar tadqiqiga alohida e'tibor qaratila boshladi. Milliy-madaniy reallikning lisoniy ifodasi hisoblangan realiyalar milliy o'ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko'rsatkichlari sifatida ta'riflandi. Realiya terminiga dastlab K.H.Hendshin ta'rif bergan, keyinchalik jahon tilshunosligida O.Axmanova, V.Gak, L.Kelli, Ye.Vereshagin, V.Kostomarov, S.Vlaxov, S.Florin, G.Tomaxin, D.Katan, S.Tyulenov, A.Gradler, Y.Shabanova, Y.Privalovalar o'z tadqiqotlarida realiyalar bilan bog'liq masalalarni o'rganishgan².

thods of Teaching Modern Languages. – New York, 1924. – P.209;
ль лингвистических терминов. – М., 1969. – С.381; Гак В.Г.
я французского и русского языков. – JL, 1977; Kelly L. The True
translation Theory and Practice in the West. – Oxford, 1979. – P.45;
аров В.Г. Язык и культура. – М., 1980; Влахов С., Флорин С.
с. – М., 1986. – С.11; Томахин Г.Д. Реалии – американизмы.
lating Cultures. An Introduction for Translators, Interpreters and
p.32; Тиленев С.В. Теория перевода. – М., 2004; Graedler
n English on the Net – Translation course. – Oslo, 2010.
Ю. Проблема переводе слов – реалий. – Таганрог, 2012.

O'zbek tilshunosligida G'.Salomov, R.Fayzullayeva, K.Jo'rayev, I.G'afurovlarning tadqiqotlarida³ milliy xos so'zlarga muayyan darajada munosabat bildirilgan. I.Mirzayev, H.Hamroyev, R.Shirnova, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, Sh.Usmanova, D.Xudayberganova, D.Abduraxmonova, Z.Xolmanova, O.Saidaxmedova, O.Nurullayeva, F.Xabibullayeva⁴lar realiyalarning ta'rifi va turlari, tasniflash tamoyillari, tarjimada aks ettirish kabi masalalar haqida izlanishlar olib borishgan. Xususan, realiyalar, asosan, chog'ishtirma va qiyosiy aspektda o'rganilgan. Realialarning lingvokulturologik birlik sifatida tadqiq etilganiga qaramay, mazkur tushuncha bilan bog'liq muammolar yetarli darajada o'z aksini topmagan. Realialarning muayyan tildagi o'rni, kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyalari, qadriyatlar, milliy munosabatlar, xalqning turmush tarzi, etnik xususiyatlarni ifoda etish darajasi, realiyalar semantikasi atroflicha yoritilmagan. Realialarning bir til doirasidagi semantik xususiyatlari, deyarli, tadqiq etilmagan. "Realiya" tushunchasi talqinlaridagi turlichalik, ularning semantik mundarijasini yoritish, turli davrlarda amalga oshirilgan tarjimalarda asliyatdagi milliy o'ziga xos so'zlarni qayta yaratishda yuzaga keladigan muammolar ham tadqiq etilmagan masalalar qatoriga kiradi.

³ Salomov G. Til va tarjima. – T.: Fan, 1966. – B.124; shu muallif. Tarjima tashvihi. – T., 1983. – B.90; Fayzullayeva R. Iyuldar yirok, kungillar yaqin / Tarjima san'ati. – T., 1973. – B.74; shu muallif. Национальный колорит и художественный перевод. – T., 1979. – С.56; Жураев К. Tarjima san'ati. – T., 1982. – B.60; Гафуров И. Tarjima shunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008. – B.54.

⁴ Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык. Док. дисс. – Л., 1975. – 132 с; Хамроев Х. Миллий сўзлар – реалиялар ва бадий таржима / Tarjima madaniyati. – T., 1982. – B.36; Shirnova R.X. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari. Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2002. – 126 b; shu muallif. Diniy realiyalarning badiiy tarjimada berilishi. – T.: Mumtoz s'z, 2011. – B.75; Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – T.: Mumtoz s'z, 2011. – 182 b; Usmanova Sh. Oltoy tillarida musharak madaniy leksika. – T.: Fan, 2010. – 230 b; shu muallif. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. – 192 b; Xudayberganova D.C. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик таркиби. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – T., 2015. – 240 б; Абдурахмонова Д. Реалия термини ҳусусида / Til va adabiyat ta'limi. №8. 2016. – B. 36-38; Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – T., 2018. – 94 b; Xabibullayeva F. Воссоздание национального своеобразия как критерий адекватности перевода. Филол. фан. номз. ...дисс. автореферат. – T., 2020. – 48 с.

“REALIYA” HODISASINING ILMIY TAVSIFI

Realiyalar tavsifi va yondosh tushunchalardan farqi

Tilshunoslikda an'anaviy tarzda uch xil paradigmaning mavjudligi qayd etiladi: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, struktur tilshunoslik, antroposentrik tilshunoslik. Ushbu paradigmalardan biri bo'lgan antroposentrik tilshunoslik tilni shu til sohiblarining qiziqishlari, ruhiyati, ichki olami, dunyoqarashi bilan uyg'unlikda talqin qiladi. Antroposentrik yo'nalishlardan biri lingvokulturologiyadir.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati va aloqasini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini bir necha fanlar doirasida hal qilish mumkin. Ulardan biri lingvokulturologiya bo'lib, tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90 yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan yangi sohadir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatini tadqiq qiladi.

Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarni bajaradi. Tilning akkumulyativ funksiyasi madaniy munosabatlar, milliy qadriyatlarni aks ettirish xususiyati orqali ham namoyon bo'ladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'raganadigan soha bo'lgan lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir.

Realiya tarjimashunoslik, qiyosiy-tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Realiya madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiladi, xalqning turmush tarziga oid tushunchalarni aks ettiradi.

Realiyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tushunchalar bo'lib, madaniyatlar o'rtasidagi farqlar yuzaga kelgan davrlarga to'g'ri keladi. Realialarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realianing dastlabki ma'nosi “madaniyatlarining o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushuncha”dir. “Realiya” so'zining etimologiyasi ham

lotincha “moddiy” degan tushunchaga teng keladi⁵. Realialarni moddiy madaniyat belgilari sifatida baholash mumkin. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda ma’lum bir madaniyatga xos predmetlarni ifoda etuvchi so’z va iboralar keng ma’noda realiyalar deb yuritiladi.

Realiyalar til va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlikni yanada yaqqol namoyon etadi: jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida yangi realialarning yuzaga kelishi tilda shunga mos so’zlarning shakllanishiga olib keladi. Realiyalar biror bir jamoa yoki ishlab chiqarish korxona miqyosi bilan ham chegaralangan bo’lishi mumkin. Bunga ijtimoiy qatlam, kasb-hunar so’zlarini misol qilib keltirish mumkin.

Realiyaga vaqt koloriti ham mansubdir. Bu birliklar madaniyat bilan chambarchas bog’liq bo’lib, til hodisasi sifatida jamiyat taraqqiyotidagi barcha o’zgarishlarni o’zida mujassamlashtiradi; ular orasida – neologizmlar, istorizmlar, arxaizmlar kabi realialarni farqlash mumkin. Realiya bu moddiy mavjud bo’lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsadir.

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan realialarning ayrimlari asliyat mansub bo’lgan tildan tashqari yana qator qardosh xalqlar tilida uchrashi mumkin. Bunday so’zlar hudud, turmush-sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo’lib turadigan xalqlar tilida ko’proq uchraydi.

XX asrning 50-yillariga kelib realiyalar milliy o’ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko’rsatkichlari sifatida ta’riflana boshladi. Realiya terminiga dastlab K.H.Hendshin ta’rif bergan, keyinchalik jahon tilshunosligida O.Axmanova, V.Gak, L.Kelli, Ye.Vereshagin, V.Kostomarov, S.Vlaxov, S.Florin, G.Tomaxin, D.Katan, S.Tyulenov, A.Gradler, Y.Shabanova, Y.Privalovalar o’z tadqiqotlarida realiyalar bilan bog’liq masalalarni o’rganishgan⁶.

⁵Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – T., 2018. –B.25.

⁶ Handschin C.H. Methods of Teaching Modern Languages. – New York, 1924. – P.209; Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С.381; Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Л., 1977; Kelly L. The True Interpreter. A History of Translation Theory and Practice in the West. – Oxford, 1979. – P.45; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М., 1980; Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 1986. – С.11; Томахин Г.Д. Реалии – американизмы. – М., 1988; Katan D. Translating Cultures. An Introduction for Translators, Interpreters and

O.S.Axmanova lugʻatida realiyalarga quyidagicha tavsif beriladi:

Realiyalar (lot. *realia*): 1. Klassik grammatikada mazkur tilda ularni namoyon etish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, tashqi lingvistika fani oʻrganuvchi, mazkur mamlakatning davlat tuzumi, ana shu xalqning tarixi, madaniyati va aynan shu tilda soʻzlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar.

2. Mavjud madaniyat predmetlari⁷.

D.Y.Rozental, M.A.Telenkovalar realiyalarni soʻzning nominativ maʼnosi uchun asos boʻlib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari sifatida izohlaydi⁸.

Tadqiqotchilar realiyalarni boshqa til leksikasidagi birliklar sifatida turlicha tavsiflaydilar. Koʻpgina adabiyotlarda “ekvivalentsiz leksika”, “ekzotik leksika” yoki “ekzotizmlar”, shunga yaqin maʼnoga ega boʻlgan “varvarizmlar”, “lokalizm”, “qusurlar” yoki “lakunalar” (matnda tushib qolgan oʻrinlar) kabi terminlar faol qoʻllanadi. Ushbu tushunchalarni “muayyan milliy, tarixiy, mahalliy, maishiy, maʼnaviy oʻzgachalik, tarjima tilida mos soʻzlar (ekvivalenti)ning yoʻqligi” semalari birlashtirib turadi.

Realiyalar tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar va talqinlar asosida tavsiflangan. Aksariyat oʻrinlarda ekvivalentlarga ega boʻlmagan maishiy va oʻziga xos milliy soʻzlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud boʻlmagan milliy turmush tarzidagi soʻzlar realiye sifatida keltirilgan. Tadqiqotlardagi fikrlarga murojaat qilamiz.

A.V.Fedorov realiyalarni hech bir nom bilan atamay, ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi, yaʼni faqatgina mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida muqobili yoʻq boʻlgan soʻzlar sifatida keltiradi⁹. A.V.Fedorovning qarashlarini realiyalar tadqiqi ommalashmagan,

Mediators. – Manchester. 1999. – p.32; Тюленев С.В. Теория перевода. – М., 2004; Grædler A.L. Cultural shock. Oslo Studies in English on the Net – Translation course. – Oslo, 2010. – P.87; Пабанова Ю., Привалова Ю. Проблема перевода слов – реалий. – Таганрог, 2012. – С.45-47.

⁷Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С.381.

⁸Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. – М., 1985. – С.362.

⁹Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968. – С.175.

bu hodisaga endigina munosabat bildirilayotgan davrga xos ilmiy munosabat sifatida baholash mumkin.

T.I.Cheremisining fikriga ko'ra, realiya-so'zlar lokal belgilangan so'zlar hisoblanib, muayyan millatga xos urf-odatlar, maishiy predmetlarni belgilash uchun xizmat qiladi¹⁰. Ko'rinadiki, T.I.Cheremisina realiyalar qatorida urf-odat, ya'ni milliy munosabatlarni ham qayd etgan.

G.D.Tomaxin realiyalarni muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va h.k. nomlari deb ta'riflaydi¹¹. G.D.Tomaxin ta'rifida realiyalar semantik hajmining yanada kengayganligini kuzatamiz.

Qayd etilgan ta'riflarda realiyalarning alohida xususiyatlari aniq namoyon bo'lib turibdi. Realialar – bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga xos va boshqa xalq uchun begona bo'lgan predmet-hodisalarni anglatuvchi, milliy va tarixiy bo'yoyqqa ega va odatda boshqa tillarda aniq to'g'ri keladigan so'zlar (ekvivalentlar)ga ega bo'lmagan so'z va so'z birikmalaridir.

“Realia” tushunchasining ma'nosini aniqroq belgilab olish uchun unga yondosh holda qo'llanadigan, o'xshash tushunchalar chegarasini farqlab olish zarurdir. Bu yondashuv realiyalarning semantik doirasini aniq belgilash imkonini beradi. Quyida “realia” tushunchasiga yondosh, ayrim o'rinlarda birining nomi bilan boshqasi izohlanayotgan, ba'zi o'rinlarda sinonim sifatida qo'llanayotgan tushunchalar borasida to'xtalamiz. Bular *termin*, *lokalizm*, *lakuna*, *varvarizm*, *ekzotik leksika*, *muqobilsiz leksika*, *fon so'zlari*, *ekvivalentsiz leksika* kabilardir.

O'z xususiyati va vazifalariga binoan realiyalar atamalarga va atoqli otlarga yaqin turadi. Madaniy birliklarni o'rgangan olimlarning fikriga ko'ra, atamalar va realiyalar orasidagi chegara juda shartli va juda o'zgaruvchandir. Ammo ularni bir xil tushunchalar sifatida baholash ham to'g'ri emas. Termin va realiyalar quyidagicha farqlanadi:

¹⁰Черемисина Т.И. Функциональный аспект неассимилированных заимствований. – М., 1983. – С.27.

¹¹Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988. – С.5.

Termin	Realiya
Ilmiy adabiyotlarda uchraydi.	Badiiy adabiyotda va ommaviy axborot vositalarida kuzatiladi.
Milliy bo'yoqdorlikka ega bo'lmaydi, neytral ifoda ustunlik qiladi.	Milliy, mahalliy va tarixiy kolorit ifodasi uchun xizmat qiladi.
Terminlar u yoki bu tushunchani nomlash uchun asosan sun'iy ravishda yasaladi.	Realiyalar esa tabiiy tilda mavjud bo'ladi, xalq tomonidan yaratiladi.
Terminlar biror narsa-buyumlarning nomi sifatida shu predmet-narsalar bilan birga tarqaladi.	Realiyalar ma'lum bir xalq madaniyati bilan uzviy bog'langan, aynan shu xalq tilida faol qo'llanadigan va boshqa xalqda mavjud bo'lmagan narsa-buyum nomlaridir.
Terminlar tarjima qilinadigan muqobillariga ega birliklar hisoblanadi.	Realiyalar aksariyat hollarda tarjima qilinmaydi.

Izoh sifatida aytish mumkinki, realiyalar badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari matnida o'zining milliy va tarixiy bo'yog'ini to'liq namoyon etadi, ilmiy adabiyotlarda esa oddiy atamadek ifodalanadi.

G.D.Tomaxin lingvistika, stilistika, tarjimashunoslikda realiyalarning bir xil tavsiflanmaganligini ta'kidlaydi, asosiy xususiyatlari keltirilmaganligini aytib o'tadi¹². Terminlar hajmi realiya tushunchasi hajmiga nisbatan keng. Har qanday termin ham realiya bo'lavermaydi.

Tilshunoslikda lokalizm biron bir viloyat yoki biron bir shahar bilan cheklangan holda qo'llanuvchi va mazkur tilning adabiyot namunalarida qayd etilmagan so'z yoki iboralarni ifodalaydi. Ushbu terminidan realiya sinonimi sifatida foydalanish esa, bir tomondan, uning leksik birlik sifatidagi ma'nosini o'zgartirib yuborsa, ikkinchi tomondan, agar lokalizm, ekzotizm bilan bir qatorda turadi deb faraz qilinsa, tushunchaning haqiqiy mazmuni haqidagi tasavvurni keskin qisqartirib yuboradi; uni milliy yoki tarixiy koloritga ega

¹²Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988. – С.10.

bo'lmagan mahalliy predmetlarni anglatuvchi, lingvistik tushuncha jihatdan ahamiyatga ega bo'lmagan tushunchalarni ham asloviy sifatida qarash holati yuzaga keladi.

Lakunalar haqida R.D.Filatov fikr bildirib, lakunallikni o'z turga: to'liq va to'liq bo'lmagan turlarga ajratadi¹³. Asloviy til tizimida u yoki bu tushunchani anglatuvchi yoki uning boshqa turlarini boshqa turlar bilan qiyoslaganda leksik birlikning mavjud emasligini, to'liq lakunallik, deb nomlaydi. Agar o'zlashuvchi til tizimini to'ldirgan nomlarning muayyan sonida qo'shimcha konnotativ yoki konnotativ-nominativ ma'nanom berishi sinonimik-frazeologik birliklar namoyon bo'lsa, u holda gap to'liq bo'lmagan lakunalar haqida boradi, deydi.

V.L.Muravyev asarlarida ham lakunalar haqida so'z yuritiladi. unda lakunalar mutlaq va nisbiy turlarga ajratilgan. Mutlaq lakunalar sifatida so'zlashuvchilarning boshqa tilda leksik jihatdan belgilangan alohida so'zlar yoki turg'un iboralar bilan mazkur tilda ifodalash imkoniyati mavjud emasligini keltiradi¹⁴. Uning fikricha, nisbiy lakunalar ikkala tilda ham umumiy ma'noga ega so'zlardan foydalanish natijasida yuzaga keladi va ularni ajratib ko'rish uchun nutqda u yoki bu so'zlardan foydalanishning qiyosiy-statistik hisobi zarur bo'ladi.

Lakuna hodisasini realiyaga sinonim sifatida qo'llash to'g'ri emas. Ularning sinonim sifatida qo'llanishi realiya birligi tushunchasi doirasini qisqartirib yuborishi bilan bir qatorda, noto'g'ri yondashuvni yuzaga keltiradi. Chunki lakuna o'z nomi bilan lakun "bo'shliq", "nomlanmagan tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Lakuna hodisasini madaniyatlarda mavjud tushunchalarning so'z ifodasi yo'qligiga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq. Bu holda "muloqot vositasi bo'lgan tilda so'z orqali ifodalanishi kerak bo'lgan, ammo ifodalanmagan" tushunchaga nisbatan "bo'shliq", "bo'sh qolgan, to'ldirilmagan o'rinlar" sifatida yondashiladi. Realialarni "bo'shliq" sifatida baholash to'g'ri emas. Negaki realiya ifodalagan tushuncha boshqa madaniyatlarda kuzatilmaydi, o'z-o'zidan, uni nomlash zarurati ham bo'lmaydi. Terminlarning bu kabi — birining o'rnida boshqasini qo'llash holati

¹³Филатов В.Д. Локальная маркированность фразеологических единиц — М., 1980 — С.26.

¹⁴Муравьев В.Л. Лексические лакуны — Владивосток, 1978. — С.7.